



# Mavzu:Sharof Rashidov

## hayoti va ijodi

(1917-1983)

## Adabiyot

O‘qituvchi: Abdukadirova M.M.



**Sharof Rashidov.** Taniqli adib, yirik davlat arbobi Sharof Rashidov 1917-yilning 6-noyabrida Jizzaxda dehqon oilasida tavallud topdi. O'rta maktabda dastlabki ma'lumotni olgach, 1934-yilda Jizzax pedagogika texnikumida o'qidi. 1941-yilda Samarqand davlat universitetini tugatganidan so'ng, mehnat faoliyatini muallim va muxbirlikdan boshladi. 1938–1941-yillarda Samarqand viloyati gazetasida ishladi. 1941–1942 yillarda Ikkinchi jahon urushida qatnashadi. Frontdan qaytgach, 1944–1947 yillarda Samarqand viloyati miqyosida **rahbarlik lavozimlarida faoliyat** ko'rsatadi.



- \* O'zbekiston KP Samarqand viloyat komiteti kotibi sifatida 1944-1947 yillar
- \* "Qizil O'zbekiston" gazeta muharriri sifatida 1947-1949
- \* O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi raisi (!949-1950)
- \* O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi raisi (1950-1959)



- 1947–1949 yillarda hozirgi “O‘zbekiston ovozi” gazetasiga muharrirlik qildi. 1949–1950 yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, 1950–1959 yillarda O‘zbekiston Oliy Kengashi Rayosatining raisi, 1959–1983 yillarda O‘zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi lavozimlarida xizmat qildi.
- Sharof Rashidov o‘tgan asrning 30-yillaridan badiiy ijod bilan shug‘ullanib, dastlab she’riyatda qalam tebratdi. Uning birinchi she’riy to‘plami “Samarqand kuylari” nomi bilan bosilib chiqdi. Ikkinchi jahon urushi yillarda yozgan she’rlari 1945- yilda “Qahrim” to‘plamida chop etildi. U ayni chog‘da adabiyotshunos va munaqqid sifatida ham qalam tebratdi.



Adib “G‘oliblar” (1953) qissasini qayta ishlab, 1972 yilda roman shaklida nashr ettirdi. “Bo‘rondan kuchli” romani 1958 yilda, “Qudratli to‘lqin” romani esa 1964 yilda dunyoga keldi. Bu asarlarda xalqimizning urushdan keyingi tiklanish yillaridagi matonatli mehnati badiiy ifodasini topgan. Ijodkorning “Kashmir qo‘shig‘i” (1957), “Komde va Mo‘dan” (1959) kabi lirik qissalari va “Koinot” (1957) kinoqissasi an’anaviy Sharq dostonchiligi uslubida bitilgan bo‘lib, yoshlik, bahor, go‘zal hayot nashidasi madhiga bag‘ishlangan.



- \* O'zbekiston KP MK 1-kotibi  
(1959-1983)
- \* KPSS MK Siyosiy byurosi  
(Prezidiumi) a'zoligiga nomzod  
(1961-1983)
- \* 2 marta Mehnat Qaxramoni  
(1974-1977)



Sharof Rashidov ijodida maqolaganavistlik muhim o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham uning badiiy ijodi namunalarida bu ruh yetakchilik qiladi. Adibning;  
\* G'oliblar – 1953 qissasi 11972-yilda qayta ishlanib, "G'oliblar" romani sifatida nashr etiladi .  
\* Bo'rondan kuchli-1958  
\* Qudratli to'lqin -1964 –yillarda romanlari yaratiladi.



Ularda o'zbek xalqining urushdan  
keyingi tiklanish yillaridagi mehnat  
jasorati o'z badiiy ifodasini topgan.

Ijodkorning:

\* Kashmir qo'shig'I - 1957

\* Komde va Mudan - 1959

kabi lirik qissalari va Koinot - 1960

yilda kinoqissasi an'anaviy Sharq  
dostonchiligi uslubida bitilgan bo'lob  
yishlik, bahor, go'zallik hayot  
nashidasi madhiga bag'ishlangan.



Adib hayotining  
so‘nggi yillarida  
yaratilgan “Dil amri”  
qissasi urush yillarida  
belorus tuprog‘ida jang  
qilgan o‘zbek  
jangchilarining hayoti  
tasviriga bag‘ishlangan.





Adib hayotining so'ngi yillarida yaratgan " Dil amri " qissasi urush yillarida Belorus zaminida kechgan zangchilarni g'alaba yo'lida olib borgan hayot-mamot kurashi tasviriga bag'ishlangan.

1981-1983 yillarda adibning besh jildlik asarlari rus va o'zbek tillarida chop etilgan.



**Kuba inqilobi yetakchisi, Kuba KP Birinchi kotibi Fidel Kastroning SSSRga tashrifi, aprel-iyun oylari 1963 yil. Fidel Castro va O‘zbekiston SSR Birinchi kotibi Sharof Rashidov Toshkent aholisini qarshi olishmoqda.**



**O'zbekistonga  
rasmiy tashrif bilan  
kelgan Misr  
prezidenti Gamal  
Abdul Nosir va  
O'zbekiston SSR  
Oliy kengashi  
prezidiumi raisi  
Sharof Rashidov  
Toshkentdag  
aerodromda saf  
tortib turgan faxriy  
qorovul yonidan  
o'tishmoqda**



Sharof Rashidovning rahbarlik faoliyatiga nazar tashlasak, o'sha davrning o'ta murakkabligi, ziddiyatliligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Vatanga bo'lgan so'nmas muhabbat har qanday insonni qahramonga aylantiradi deganlaridek, shaxsiyati yuksak bo'lgan Sharofning metin irodasini bundayin muammolar also buka olmadi. Ana shunday tahlikali pallada ham o'zini yo'qotmadi. Eng og'ir vaziyatlarda ham Sharof Rashidov yurt manfaatini ko'zlagan holda ish yuritdi.



- Buni zamondoshi M.Gorbachyov yordamchisi V.Boldin so’zlarida ham ko’rishimiz mumkin: ”Hokimiyat tepasiga Andropov kelishi bilan, Gorbachyov shu zahoti o‘ziga erk berib yubordi. O‘zining muvaffaqiyatlarini ko’z-ko’z qilishni boshladi. Eslayman, Rashidov paxta topshirishni oshirishi uchun, Gorbachyov qanday qilib O’zbekiston rahbarining qo’llarini qayiltirganini. Rashidov tushuntirishga, ko’ndirishga harakat qilardi: ”Bizda yomg’ir bilan qor yog’di, hammasi muzlab qolgan. Agar shu ahvolda ham terib oladigan bo’lsak, buni quritishimiz uchun yarim yil ketadi”.



Gorbachyov esa: “Baribir ko’proq topshiringlar”-dedi”. Yuqorida kelayotgan buyruqlarni yumshatishga, Markaziy hokimiyatdan yurt obodonligi, farovonligi uchun butun choralar bilan foydalanishga harakat qilardi. Bu esa buyuk xalqning ma’naviy madaniyati o’sishiga, butun olamni ongli tarzda chuqurroq anglashiga, yangidan yangi izlanishlar-u kashfiyotlarning dunyo yuzini ko’rajagiga hissa qo’shish uchun mustahkam poydevor vazifasini o’tadi. U xalqni yuksaltirish borasidagi maqsad va vazifalarni aniq belgilagan holda, xalqni birdamlikka chaqirdi. O’zi ta’kidlaganidek: ”Xalqimizning do’stligi jonajon vatanimizning kuch manbaidir. Bu do’stlik bor ekan, bu do’stlik yashar ekan, bizga hech qanday dushman, na ichki, na tashqi dushman qo’rqinchli emas”. U o’z asarlarida xalqlar o’rtasidagi quyoshdan porloq, bo’rondan kuchli, po’latdan mustahkam do’stlikni juda baland ruh va yuksak g’urur bilan tasvirlaydi.



- Sharof Rashidov rahbarligi davrida ko'plab sanoat korxonalari, yirik cho'llarining o'zlashtirilishida uning xizmatlari katta. Kechagi cho'l-u biyobonlar bog'-rog'larga aylantirildi, bu ishlardan esa yuzminglab yurtdoshlarimizning uylariga barokat, halol rizq-u nasiba kirib keldi. Bularning barchasi xalqparvar yetakchimizning sa'y-harakatlari samarasidir. O'zbekistonda Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Yangiyer va Guliston kabi odamlarning ehtiyojlarini qondirguvchi, barcha shart-sharoitlarga ega turar-joy va maishiy binolarga ega, ko'chalari keng va fayzli yirik shaharlar, o'nlab boshqa shahar va tumanlar barpo etildi..




- Sharof Rashidov sa'y-harakati natijasida Toshkentda tuzilgan xalqaro harakat 1966-yilda jahonda “Toshkent ruhi” degan mashhur tushunchani vujudga keltirdi. Bu tushuncha o’zining tom ma’nodagi asliyatidan ko’proq narsani anglatar edi. ”Vatanparvar – o’z vatani kamoloti yo’lida, o’z xalqiga muhabbat tufayli ezguliklari tugal, jonini ham ayamaydigan insondir, xalqqa va vatani ozodligi, farovonligi uchun o’zini qurban qiluvchi insondir”. Shunday insonlar safida qad ko’tarmoqlik esa inson zotiga berilgan oliy saodatdir.

Biz hech ikkalanmay Sharof Rashidovni vatanparvar deya olamiz.



U boshqa davlatlar bilan siyosiy aloqani ham yaxshiladi va ular o'rtasida nafaqat savdo-tijorat, balki madaniy-ijtimoiy sohalardagi o'zaro hamkorlikni ham yaxshiladi. Endilikda nafaqat Osiyo balki Yevroosiyo madaniyatining sharq xalqlari bilan uyg'unlashuvini ko'rish mumkin. Sh.Rashidov Dehli, Toshkent va Qohirada bo'lib o'tgan Osiyo va Afrika yozuvchilar hamkorligi harakatining, Osiyo,Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari xalqaro kinofestivalining, Hindiston va Pokiston o'rtasida tinchlik sulhi imzolanishining tashabbuskoridir.

O'zini kuchli rahbar va mohir diplomat sifatida ko'rsata olgan o'zbek xalqining qahramoni kamchiliklarga to'la sovet boshqaruv tizimini o'zbek xalqining o'lchab bo'lmas rivoji uchun yo'naltirgan. Uni xalqni ezgulikka, tinchlik va bunyodkorlikka yetaklagan, chin insoniy xislatlarga ega bo'lgan davlat arbobi, xalqning suyukli farzandi deya atasak xato bo'lmaydi. U xalqiga chin farzandlik burchini ado etgan. O'zbek nomini ulug'lash uchun uning eng yuksak fazilatlarini namoyon qilish yo'lida jonini fido etgan insondir. Shu tufayli ham bu hurmatli inson xalqimiz yuragidan munosib joy olgan va uning mehriga sazovor bo'lgan. Sharof Rashidovning qutlug' nomi Vatanimiz tarixidan munosib o'rin egalladi.





Uyga vazifa:"Kashmir qo'shig'i"  
asarini o'qish